O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki

FAKTORING XIZMATLARI BOZORI SHARHI

2025-yil I yarim yillik

Toshkent 2025

Mazkur **Faktoring xizmatlari bozori sharhi** O‘zbekiston Respublikasida faktoring xizmatlarining joriy holati, ularning rivojlanish yo‘nalishlari, hududlar va iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi qamrovi hamda xalqaro faktoring xizmatlarini kengaytirish bo‘yicha amalga oshiriliyotgan ishlarni yoritadi.

Shu bilan birga, faktoring bozori ishtirokchilari tomonidan taklif etilayotgan faktoring xizmati turlari, muddatlari hamda qo‘llanayotgan diskont stavkalari bo‘yicha ma’lumotlar bayon etilgan.

I. Mahalliy faktoring amaliyotlari tahlili

2025-yilning I yarim yilligida kredit tashkilotlari tomonidan jami **4 trln** so‘mlik faktoring xizmatlari ko‘rsatilib, ushbu xizmatlarning **3,7 trln** so‘mi yoki **93 foizi** tijorat banklari va **289 mlrd** so‘mi yoki **7 foizi** mikromoliya tashkilotlari hissasiga to‘g‘ri kelgan (1-rasm).

Bunda, ko‘rsatilgan faktoring xizmatlarining **2,3 trln** so‘mi yoki **58 foizi** raqamli faktoring xizmatlari hissasiga to‘g‘ri kelib, ushbu faktoring xizmatlarining **1,2 trln** so‘mi *(52 foiz)* “Finmakon” elektron faktoring platformasi, **1,1 trln** so‘mi *(48 foiz)* “Ozplanet” elektron faktoring platformasi tomonidan amalga oshirilgan (2-rasm).

1-rasm. Kredit tashkilotlari tomonidan ko‘rsatilgan faktoring xizmatlari hajmi, *mlrd so‘m*



2-rasm. Faktoring xizmatlari hajmi, *mlrd so‘m*



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Biznes vakillarining aylanma mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojlarini faktoring xizmati orqali moliyaviy ta’minlashining ortishi natijasida 2024-yilda faktoring xizmatlari bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich dekabr oyida **630 mlrd** so‘mga yetgan bo‘lsa, joriy yilning iyun oyida bu ko‘rsatkich **1,1 trln** so‘mni tashkil etdi (3-rasm).

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-avgustdagi PF–109-sonli Farmoni imzolangandan keyin, kredit tashkilotlari tomonidan tadbirkorlik subyeklariga 2024-yilning so‘nggi 4 oyi hamda 2025-yilning yanvar-iyun oylari davomida jami **5,2 trln** so‘m miqdorida faktoring xizmatlari ko‘rsatildi.*

3-rasm. Kredit tashkilotlari tomonidan 2024-yil va 2025-yil yanvar-iyun oylarida faktoring xizmatlarining dinamikasi, *mlrd so‘m*



Manba: Tijorat banklari ma'lumotlari

2025-yilning dastlabki 6 oyi davomida tadbirkorlik subyektlariga **davlat ulushi mavjud tijorat banklari** tomonidan jami **2,2 trln** so‘m *(58 foiz)*, **xususiy banklar** tomonidan jami **1,5 trln** so‘m *(42 foiz)* miqdoridagi faktoring xizmatlari taqdim qilingan.

Xususan, eng ko‘p faktoring operatsiyalari davlat ulushi mavjud tijorat banklarida, **Asaka bank** *(758 mlrd so‘m shundan, elektron platforma orqali 508 mlrd so‘m)*, **O‘zsanoatqurilishbank** *(479 mlrd so‘m, 465 mlrd so‘m)*, **O‘zmilliybank** *(373 mlrd so‘m, 277 mlrd so‘m)* hissalariga to‘g‘ri kelgan.

Shuningdek, xususiy banklar orasida **Kapitalbank** – 722 mlrd so‘m *(31 mlrd so‘m)*, **Hamkorbank** – 336 mlrd so‘m *(246 mlrd so‘m)* va **Asia Alliance bank –** 135 mlrd so‘m *(85 mlrd so‘m)* bilan faktoring xizmati ko‘rsatishda yetakchilik qilgan.

Shu bilan birga, **mikromoliya tashkilotlari** tomonidan ushbu davrda jami **289 mlrd** so‘mlik debitorlik qarzdorliklar moliyalashtirilgan (4-rasm).

4-rasm. Kredit tashkilotlari kesimida 2025-yilning I yarim yilligida ko‘rsatilgan faktoring xizmatlari miqdori, *mlrd so‘m*



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Bugungi kunda, tadbirkorlarga taqdim etilayotgan moliyaviy xizmatlarni diversifikatsiya qilish, ularga xilma-xil zamonaviy bank mahsulotlarini taqdim etish hamda tijorat banklarining qisqa muddatli moliyalashtirish xizmatlarida faktoring xizmatlarini alternativ yechim sifatida keng ko‘lamda ommalashtirish choralari ko‘rilmoqda.

Natijada, 2024-yilning II yarim yilligida ko‘rsatilgan faktoring xizmatlarining qisqa muddatli moliyalashtirishga nisbati 1 foizdan *(iyul)* 6,1 foizga *(dekabr)* oshgan bo‘lsa, joriy yilning yanvar-iyun oylarida ushbu ko‘rsatkich **4,5 foiz**dan **14 foiz**ga ko‘tarildi (5-rasm).

5-rasm. 2024-yil va 2025-yilning yarim yilligida koʻrsatilgan faktoring xizmatlarining qisqa muddatli moliyalashtirishdagi ulushi, *foiz*



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Hududlar kesimida joriy yilning yanvar-iyun oylarida koʻrsatilgan faktoring xizmatlarining asosiy qismi Toshkent shahrida **1,5 trln** soʻm *(37,5 foiz)*, Andijon viloyatida **1,2 trln** soʻm (28,9 foiz), Toshkent viloyatida **312 mlrd** soʻm *(7,7 foiz)* va Farg'ona viloyatida **277 mlrd** soʻm *(6,9 foiz)* miqdorida shakllangan boʻlib, Sirdaryo viloyatida **17,3 mlrd** soʻm *(0,4 foiz)*, Surxondaryo viloyatida **14,7 mlrd** soʻm *(0,4 foiz)* va Jizzax viloyatida **12,8 mlrd** soʻm *(0,3 foiz)*ni tashkil etib, qolgan hududlarga nisbatan sezilarli darajada past koʻrsatkichni qayd etgan (6-rasm).

6-rasm. Hududlar kesimida 2025-yilning yarim yilligida koʻrsatilgan faktoring xizmatlari miqdori, *foiz*



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Mijozlarning tashkiliy shakli boʻyicha koʻrsatilgan faktoring xizmatlarining taqsimotida eng yuqori ulush mas'uliyati cheklangan jamiyatlarga **2,5 trln** soʻm yoki **61 foiz** miqdorida faktoring xizmatlari koʻrsatilgan boʻlib, aksiyadorlik jamiyatlariga **1,2 trln** soʻmni *(28,7 foiz)* tashkil etgan.

Shuningdek, chet el kapitali ishtirokidagi korxonalar **352 mlrd** soʻmlik *(8,7 foiz)* hamda xususiy, oilaviy korxonalar va fermer xoʻjaliklarining **64 mlrd** soʻmlik *(1,6foiz)* debitorlik qarzlari faktoring xizmatlari orqali moliyalashtirilgan (7-rasm).

7-rasm. Faktoring xizmatlari korxonalar tashkiliy shakli bo‘yicha tahlili, *mlrd so‘m*



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Muddatlar qirqimida **30 kungacha** faktoring xizmatlari jami faktoring xizmatlarining 32 foizini *(1,3 trln so‘m)*, **31 kundan 60 kungacha** – 18 foizini *(0,7 trln so‘m)*, **61 kundan 90 kungacha –** 32 foizini *(1,3 trln so‘m)*, **91 kundan 120 kungacha** – 11 foizini *(0,4 trln so‘m)* hamda **121 kundan 180 kungacha** - 7 foizini *(0,3 trln so‘m)* tashkil qilgan (8-rasm).

Miqdorlar kesimida **100 mln** so‘mgacha faktoring xizmatlari jami faktoring xizmatlarining 1 foizini *(0,03 trln so‘m)*, **100 mln** so‘mdan **500 mln** so‘mgacha 10 foizini *(0,4 trln so‘m)*, **500 mln** so‘mdan **1 mlrd** so‘mgacha 7 foizini *(0,3 trln so‘m)*, **1 mlrd** so‘mdan **5 mlrd** so‘mgacha 38 foizini *(1,5 trln so‘m)* hamda **5 mlrd** so‘mdan yuqori bo‘lgan faktoring xizmatlari 44 foizini *(1,8 trln so‘m)* tashkil qilgan (9-rasm).

8-rasm. Faktoring xizmatlari muddatlari boʻyicha tahlili, *foiz*



9-rasm. Faktoring xizmatlari miqdorlari boʻyicha tahlili, *foiz*



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Iqtisodiyot tarmoqlari boʻyicha faktoring xizmatlarining asosiy qismi **sanoat** sohasiga **2,2 trln** soʻm *(54 foiz)* hamda **savdo** va **xizmat koʻrsatish** sohasiga **1,5 trln** soʻm *(38 foiz)* mablagʻlar yoʻnaltirilgan.

Shuningdek, **qurilish** va **qishloq xoʻjaligi** sektorlarida har biri mos ravishda **168 mlrd** soʻmlik *(4 foiz)* va **170 mlrd** soʻmlik *(4 foiz)* debitorlik qarzdorliklari moliyalashtirildi (10-rasm).

10-rasm. Iqtisodiyot sohalari boʻyicha koʻrsatilgan faktoring xizmatlari, *foiz*



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

II. Xalqaro faktoring amaliyotlari tahlili

Eksportyor tadbirkorlarga zamonaviy moliyaviy xizmatlar koʻrsatish hamda faktoring xizmatlarini yanada rivojlantirish maqsadida **22 ta tijorat banklari** tomonidan **xalqaro faktoring** mahsulotlari ishlab chiqilgan.

Joriy yilning yanvar-iyun oylari davomida mamlakatimizdagi tijorat banklari tomonidan eksportyor korxonalarga **52 mlrd** soʻm ekvivalentidagi regress huquqi bilan xalqaro faktoring xizmati koʻrsatildi. Bunda, koʻrsatilgan xalqaro faktoring xizmati **4 mln AQSH dollari** va **9,9 mln Rossiya rubli**da amalga oshirilgan.

Shuningdek, xalqaro faktoring xizmatlarini rivojlantirish ishlari doirasida mahalliy tijorat banklari **Asia-Invest bank AJ** bilan **agentlik xizmatini** koʻrsatish boʻyicha hamkorlik qilish yuzasidan shartnomalar imzolagan.

Hisobot sanasida **Asia-Invest bank** tomonidan eksportyor korxonalarga Oʻzmilliybank, Asaka bank, Turonbank, Agrobank, Oʻzsanoatqurilishbank, Xalq banki, Ziraatbank, Hamkorbank, Asia Alliance bank, Ipak yoʻli banki, Trastbank, Kapitalbank va Invest Finans bank bilan tuzilgan **agentlik xizmati shartnomalari** asosida jami **491,6 mlrd** soʻm ekvivalentidagi xalqaro faktoring amalga oshirilgan.

Jumladan, ushbu **agentlik shartnomasi doirasida** amalga oshirilgan xalqaro faktoring xizmati **38,2 mln** AQSH dollari, **33,5 mln** Rossiya rubli va **0,7 mln** Xitoy yuanida koʻrsatilgan (11-rasm).

11-rasm. Agentlik shartnomasi doirasida koʻrsatilgan xalqaro faktoring xizmatlari *(AQSh dollari, Rossiya rubli, Xitoy yuani).*



© O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2025-yil

Mazkur sharh Mikromoliya bozori ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish departamenti tomonidan tayyorlandi.

O‘z taklif va e’tirozlaringiz quyidagi manzilga jo‘natishingiz mumkin:

E-mail: f_nematov@cbu.uz, o.azimov@cbu.uz

Tel.: (+998) 71 212-73-17